



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


NOMINAL HISOBLANGAN O'RTACHA OYLIK ISH HAQI

*qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlarisiz, dastlabki ma'lumotlar*


2023-yil yanvar-dekabr

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi

yanvar-iyun, o'sish darajasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan, ming so'm



Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori dinamikasi, so'mda





Ma'lumot uchun: Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori oshirilib 2023-yil 1-dekabrda 1 050,0 ming so'm etib belgilangan.

2023-yil yanvar-dekabr oylari uchun o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichini shakllantirishda qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlari **hisobga olinmagan**, chunki fermer xo'jaliklari hamda kichik tadbirkorlik subyektlari **yilda bir marta** hisobot taqdim etishi belgilangan.


Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari (keyingi o'rinlarda – o'rtacha oylik ish haqi) har bir iqtisodiy faoliyat turlarida turlicha farqlanadi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga qo'shimcha to'lovlar, mukofot pullari, rag'batlantiruvchi to'lovlar, kompensatsiya va ishlamagan vaqti uchun to'lovlar, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va kasaba uyushmasiga ajratmalar kiradi.



O'rtacha oylik ish haqining tarmoqlar bo'yicha o'zgarish dinamikasi



2022-2023-yillarda o'rtacha oylik ish haqining oylar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm




2023-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng baland o'sish ko'rsatkichi tashish va saqlash sohasiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish darajasi **168,3 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, axborot va aloqa faoliyati sohasida **149,2 %**, bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasi **136,2 %**, savdo sohasi **130,5 %**, sanoat sohasi **117,1 %**, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi **116,8 %**, ta'lim sohasida **115,7 %**, hamda qurilish sohasi **104,1 %** ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

SANOAT SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



4 128,1

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



3 632,2

Ishlab chiqarish sanoati



2 813,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish




5 860,4


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (**5 860,4 ming so'm**), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (**4 128,1 ming so'm**), ishlab chiqarish sanoati (**3 632,2 ming so'm**), hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (**2 813,3 ming so'm**) kuzatildi.

QURILISH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




Hududlar kesimida




Qurilish faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Pastdarg'om tumani (4 949,1 ming so'm), Toyloq tumani (4 535,2 ming so'm), hamda Oqdaryo tumanida (3 897,3 ming so'm) qayd etildi.


O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




SAVDO SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Savdo faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Toyloq tumani (3 785,4 ming so'm), Pastdarg'om tumani (3 600,7 ming so'm), Bulung'ur tumani (2 492,7 ming so'm), Jomboy tumanida (2 449,9 ming so'm) kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Samarqand tumanida (2,3 m), Bulung'ur tumanida (193,1 %) hamda Urgut tumanida (170,9 %) qayd etildi.


TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Narpay tumani (8 703,6 ming so'm), Samarqand tumani (5 361,9 ming so'm), Samarqand shahri (4 981,2 ming so'm), Urgut tumani (2 690,7 ming so'm) hamda Pastdarg'om tumani (1 098,7 ming so'm) kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Urgut tumanida (2,9 m), Samarqand shahrida (194,1 %), Pastdarg'om tumanida (122,5 %) qayd etildi.


AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Axborot va aloqa iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Samarqand shahri (7 847,4 ming so'm), Nurobod tumani (4 058,3 ming so'm) Kattaqo'rg'on tumani (3 881,9 ming so'm) hamda Jomboy tumani (3 588,4 ming so'm)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Qo'shrabot tumanida (2,5 m), Urgut tumanida (160,5 %), Kattaqo'rg'on shahrida (151,3 %), Samarqand shahrida (150,9 %), Narpay tumanida (139,5 %) qayd etildi.


BANK, SUG'URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Kattaqo'rg'on shahrida (14 638,3 ming so'm), Urgut tumani (12 038,1 ming so'm), Samarqand shahrida (9 579,9 ming so'm) hamda Payariq tumanida (7 126,3 ming so'm)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Urgut tumani (196,4 %), Kattaqo'rg'on shahrida (172,4 %), Samarqand tumanida (153,2 %) qayd etildi.

TA'LIM SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi,




Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Samarqand shahri (4 271,5 ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (3 097,4 ming so'm), Urgut tumani (3 033,5 ming so'm) hamda Samarqand tumani (2 990,2 ming so'm)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Qo'shrabot tumanida (125,1 %), Pastdarg'om tumanida (121,5 %), Urgut tumanida (119,4 %), Samarqand tumanida (119,3 %), hamda Payariq tumanida (118,6 %) qayd etildi.

SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOY XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




Hududlar kesimida



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining faoliyati turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi), Samarqand shahrida (**3 543,9 ming so'm**), Toyloq tumani (**3 224,3 ming so'm**), Urgut tumani (**3 164,1 ming so'm**), Nurobod tumanida (**3 057,1 ming so'm**) hamda Samarqand tumanida (**3 023,2 ming so'm**) kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Bulung'ur tumani (**128,8 %**), Samarqand tumani (**123,9 %**) hamda Nurobod tumanida (**121,5 %**) va Pastdarg'om stumanida (**121,2 %**) qayd etildi.

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



DEMOGRAFIYA VA MEHNAT STATISTIKASI BO'LIMI

Nominal hisoblangan ish haqi—ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.



Tel: 66 235-72-35